

TEKNOLOGIYA FANINI O‘QITISHDA O‘QUVCHILARDA IJODKORLIKNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHAROITLARI.

ADPI “Pedagogika va Psixologiya” kafedrasida o‘qituvchisi O. Qodirova
ADPI Texnologik ta’lim yo‘nalishi 2-bosqich talabasi
G. X. Xabibullayeva

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19452536>

Annotatsiya: Mazkur maqolada bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarining kreativligini rivojlantirishning mazmuni va mohiyati yoritilgan. Shuningdek, fan va texnikaning jadal sur‘atlar bilan rivojlanishi natijasida ilmiy bilimlar, tushuncha va tasavvurlar hajmining keskin ortib borayotgani tahlil qilinadi. Bunday sharoitda kreativ salohiyatga ega bo‘lgan bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilariga bo‘lgan talabning ortib borishi hamda ularning kasbiy kompetentligini yuqori darajada shakllantirish zarurligi asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: fan, texnika, kreativlik, texnologiya, kasbiy kompetentlik, innovatsiya, bilim, ko‘nikma, malaka, g‘oya, tasavvur, strategiya, mutaxassis, ta’lim tizimi, metodika.

Abstract: This article discusses the content and essence of developing creativity among future technology teachers. It analyzes how the rapid development of science and technology has led to a significant increase in the volume of scientific knowledge, concepts, and ideas in modern society. Under such conditions, the demand for future technology teachers with strong creative potential is increasing, and the importance of developing their professional competence at a high level is emphasized.

Key words: science, technology, creativity, technology education, professional competence, innovation, knowledge, skills, ideas, imagination, strategy, specialist, education system, methodology.

Аннотация: В данной статье раскрываются содержание и сущность развития креативности будущих учителей технологии. Анализируется, что в результате стремительного развития науки и техники в современном обществе значительно увеличивается объём научных знаний, понятий и представлений. В таких условиях возрастает потребность в будущих учителях технологии, обладающих высоким уровнем креативного потенциала, а также подчеркивается необходимость формирования их профессиональной компетентности на высоком уровне.

Ключевые слова: наука, техника, креативность, технология, профессиональная компетентность, инновации, знания, умения, навыки, идея, представление, стратегия, специалист, система образования, методика.

Bugungi kunda fan va texnikaning jadal rivojlanishi, ishlab chiqarish jarayonlarining modernizatsiyalashuvi hamda innovatsion texnologiyalarning keng joriy etilishi ta’lim tizimiga ham yangi talablarni qo‘ymoqda. Ayniqsa, texnologiya fanini o‘qitish jarayonida zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega, kreativ fikrlaydigan hamda innovatsion g‘oyalarni ilgari sura oladigan mutaxassislarni tayyorlash dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Shu sababli bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarining kreativ salohiyatini rivojlantirish pedagogik ta’lim tizimining muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda.

Hozirgi davrda ilmiy bilimlar, tushuncha va tasavvurlar hajmi keskin ortib borayotganligi sababli ta’lim jarayonida an’anaviy o‘qitish usullari bilan bir qatorda innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llash zarurati yuzaga kelmoqda. Bu esa bo‘lajak o‘qituvchilardan nafaqat chuqur nazariy bilimlarga ega bo‘lishni, balki kreativ fikrlash, muammoli vaziyatlarga yangi

g‘oyalar asosida yondashish hamda zamonaviy texnologiyalarni ta’lim jarayonida samarali qo‘llay olish kompetentligini ham talab etadi.

Texnologiya fani o‘qituvchilarining kreativligini rivojlantirish ta’lim jarayonida innovatsion yondashuvlarni qo‘llash, yangi metod va strategiyalarni ishlab chiqish hamda o‘quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, bo‘ljak texnologiya fani o‘qituvchilarining kreativligini rivojlantirishning mazmuni va mohiyatini o‘rganish hamda ularning kasbiy kompetentligini shakllantirish masalasi muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi[1].

Fan va texnikaning jadal sur‘atlar bilan rivojlanishi natijasida bugungi kunda ilmiy bilimlar, tushuncha va tasavvurlar hajmi keskin ortib bormoqda. Bunday sharoitda, kreativ salohiyatli bo‘ljak texnologiya fani o‘qituvchilarga bo‘lgan talablar ortib borib, ularning kasbiy kompetentligini yuksak darajada bo‘lishini talab etadi. Zamonaviy ta’lim qaysi sohada bo‘lmasin insonga o‘zi va uni o‘rab turuvchi olam haqida bilim beruvchi, yashashni o‘rgatuvchi, ushbu bilimlar asosida jamiyat taraqqiyoti uchun egallagan kasbini mukammal bilishga undovchi va rivojlantiruvchi kabi yagona maqsadlarga ega. Bundan kelib chiqqan holda bilim olish - bu maqsad emas, balki hayotda maqsadga aylangan strategiyani amalga oshirishga qaratilgan vositadir. Zamonaviy jamiyatda oliy ta’lim muhim rol o‘ynaydi. Istalgan davlatni tezlikda rivojlanishi, asosiy va inkor etib bo‘lmaydigan intellektual imkoniyatlar ta’lim tizimini isloh qilish orqali amalga oshiriladi. Kreativlik nafaqat yakka tartibdagi korxonalarining, balki mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligini rivojlantirish uchun ham asos bo‘lib xizmat qiladi.

Sanoatning, xususan, mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi insonlarning kreativligini rivojlanishiga bog‘liq. R.Florida, C.П.Ланцев ta’kidlaganidek, ushbu sifatni istalgan soha mutaxassislari uchun rivojlantirish muhim hisoblanadi. Tadqiqotlar ko‘rsatishicha, innovatsion iqtisodiyotning muvaffaqiyati bevosita kreativ shaxslarga bog‘liq bo‘lib, jamiyatni kreativ mutaxassislarni kengaytirishga ehtiyoji yuqori[2].

Bugungi kunda kreativ mutaxassislarni shakllantirish zamonaviy jamiyat ta’lim tizimining asosiy vazifalaridan biridir. Qo‘yilgan vazifaga faqatgina kreativ o‘qitish metodikasini maqsadli olib borish bilan erishish mumkin, bunda ta’lim oluvchiga yangi amaliy bilimlarni tushunishiga, ulardan yangilik yaratishi va amaliyotga samarali tadbiiq etishiga imkon berilishi lozim.

So‘nggi yillarda oliy ta’lim muassasalarida bo‘ljak texnologiya fani o‘qituvchilarining tikuvchilikka oid kreativ rivojlantirish, o‘qitish metodikasini o‘quv jarayonida qo‘llash va zamonaviy ta’limning asosiy vazifalaridan biri sanalmoqda.

Respublikamiz va xorijiy mamlakat olimlari tomonidan kreativ o‘qitishning falsafiy, psixologik va pedagogik nuqtai nazardan ko‘p qirrali hususiyatlari tavsifi bo‘yicha bir qancha ilmiy izlanishlar olib borilgan.

Yu.M.Asadovning fikricha, kreativlik salohiyatini eng qimmatli xususiyatlaridan biri uning innovatsiyani yaratishdagi asosiy rolidir. Innovatsiya - shaxs intellekti mahsuli bo‘lib, kreativlikni qo‘llash natijasida namoyon bo‘ladi.

G.N.Ibragimovanning tadqiqot ishida kreativlik - shaxsning yaratuvchanlik, ijodkorlik xislatlarlari bilan bog‘liq ko‘nikmalar majmui bo‘lib, u o‘z ichiga muammolarga nisbatan yuqori darajadagi sezgirlik, intiutsiya, natijalarni oldindan ko‘ra bilish, fantaziya, tadqiqotchilik va refleksiyaning qamrab oladi deb ta’kidlaydi.

A.A.Aripjanova esa kreativlikni o‘rganish bo‘yicha pedagogik faoliyatning o‘ziga xosliklari va yondashuvlarni inobatga olib, pedagog kadrlarining kreativligini: faoliyatli, samarali, shaxsiy, muhitga doir, muammoli aspektlarda ko‘rib chiqish lozimligini aniqlagan[3].

Turli tadqiqotlarda, jumladan, E.S.Shelestova tadqiqot ishlarida kreativlik tushunchasini yuzdan ortiq ta’rifi keltirilgan. Ko‘pchilik mualliflarning fikricha kreativlik pedagogik jarayonda

oliy ta’lim muassasalarining faoliyati bilan uzviy bog‘liq, ya’ni ta’lim jarayoni va iqtisodiyotni modernizatsiya qilishning asosiy shartlari sifatida qaraladi. Bunda Oliy ta’lim muassasalar samaradorligini oshirishga qaratilgan asosiy faktorlardan biri bu moddiy texnik salohiyat tizimini yangilashdir.

Sh.X. Pozilovanning tadqiqot ishida oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish kurslarida tinglovchilarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlaridan kelib chiqib, dizaynfikrlash texnologiyasiga asoslangan empatiya, fokus, innovatsion g‘oya, prototip, testlash kabi bosqichlarni kiritish orqali kreativ o‘qitish metodikasi takomillashtirilgan.

Pedagog kadrlar kreativligini rivojlantirish zaruriyati E.E.Antonova, tomonidan yoritilgan. A.V. Kostyukov va D.V. Miroshnikova pedagogik faoliyatda kreativlikni paydo bo‘lish ko‘lami yetarlicha keng va buni pedagogning talabalarga bo‘lgan munosabatida, pedagogik xulq-atvorda, fanni o‘qitish metodikasida, talabalarga beriladigan materialni tanlashda, sinfdan tashqari o‘qish va tarbiyaviy ishlarda ko‘rish mumkinligi to‘g‘risida fikr yuritganlar.

M.M.Akeshova, L.Yu.Korolevalar tomonidan kreativlikni psixologik-pedagogik asoslari aniqlangan bo‘lib, kreativlik ijodiy intellektual qobiliyat sifatida qaralgan, ya’ni olib borilayotgan tajribalarga yangilik kirita olish qobiliyati, muammoni aniqlashda va yechimini topishda original g‘oyalar yaratish qobiliyati, shuningdek o‘quv-tarbiyaviy jarayonga qaratilgan farazlarni shakllantirish qobiliyati kiradi deya ta’kidlaganlar.

Aksenova M., Gurina M., Dronova N kabi olimlarning tadqiqotlariga ko‘ra, kreativ shaxs – hech qachon befarq, tinch holatda turmaydigan insondir. U anchagina tartibsiz, ko‘p narsaga shubha bilan qaraydi, qiziqishlar doirasi keng, mustaqil fikrlaydi, atrofdagilarni o‘z dunyoqarashiga moslashtirishga intiladi.

Falsafiy ensiklopediya lug‘atida kreativlik (lot. *creo*- ijod etmoq, yaratmoq) berilgan jarayon va muammolarni noodatij ko‘rinishda echimini topishga yo‘naltirilgan ijodiy o‘zgarishlarga bo‘lgan qobiliyat sifatida tavsiflanadi.

M.M.Akeshova, L.Yu.Koroleva va boshqa olimlar tomonidan kreativlikni psixologik-pedagogik asoslari aniqlangan. Ularning ishlarida kreativlik ijodiy intellektual qobiliyat sifatida qaralib, olib borilayotgan tajribalarga yangilik kirita olish qobiliyati, yangi muammoni qo‘yishda va yechimini topishda original g‘oyalar yaratish qobiliyati, shuningdek jarayon elementlariga qaratilgan farazlarni shakllantirish, fikrlarning stereotip usullardan voz kechish qobiliyatlarini kiritganlar[4].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Арипджанова А.Р. (2017). Таълимни ахборотлаштириш шaroitida oliy taъlim muassasalari.
2. Axmadovna S.D. (2021). Bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashning kreativligini rivojlantirish: Sayfullayeva
3. Bahronova Sh.I. (2024). Oliy ta’limda talabalarning kasbiy kompetensiyalarini va kreativligini shakllantirishda dasturlashtirilgan vositalarning o‘rni. // “Pedagogik mahorat” ilmiy-nazariy metodik jurnal. №1 (B.184-188).
4. Vaxronova S., Davlatova N. (2023). Texnologiya fanidan mashg‘ulotlarni tashkil qilishning zamonaviy kompetensiyalari // Бюллетень педагогов нового Узбекистана. – Т. 1. – №. 7. (С. 64-68).
5. Vaxronova S., Davlatova N. (2023). Bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarini tikuvchilikka oid kreativ rivojlantirishning pedagogik shartlari.
6. Позилова Ш.Х.(2018). Креативная компетентность преподавателей информатики высших учебных заведений // Информатика и образование.-М.: - №1. (С.61-63).